

# Moliyaviy Muassasalarni Kreditlash – Ipak Yo’li Bankiga kichik biznesni moliyalashtirish uchun ajratilgan sindikatlashgan kredit

<b>Davlat:</b>	O'zbekiston
<b>Loyiha tartib raqami:</b>	49737
<b>Biznes faoliyat turi:</b>	Moliyaviy muassasa (depozitlar bilan ishlovchi)
<b>E'lon turi:</b>	Xususiy
<b>Ekologik tasnifi:</b>	Moliyaviy muassasa
<b>Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi:</b> 5 Sentabr, 2018 yil	
<b>Tasdiqdan o'tish bosqichi:</b>	Loyihaning kontsepsiyasi ko'rib chiqilgan
<b>Loyihaning qisqacha mazmuni bo'yicha xulosa chop etilgan sana:</b>	12 iyun, 2018 yil

## Loyiha mazmuni

Loyiha "Ipak Yo'li" aksiyadorlik tijorat innovatsion bankiga 20 million AQSh dollari miqdorida sindikatlashtirilgan kredit, jumladan 10 million AQSh dollari miqdorigacha bo'lgan A kredit va 10 million AQSh dollari miqdorigacha bo'lgan B kreditini, imkoniyatlardan eng yaxshi foydalanilgan holda ajratishdan iborat. Loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, YTTB tomonidan O'zbekiston moliyaviy muassasalar bozorida birinchi sindikatlashgan kreditini yaratibberadi. Ushbu kreditga qo'shimcha sifatida Texnik Ko'mak (TK) ham ajratiladi.

## **Loyiha maqsadi**

Sindikatlashgan kredit, Ipak Yo'li Bankiga o'z moliyaviy manbalarini diversifikatsiya qilish va O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillariga kredit ajratishni kengaytirish imkonini yaratadi.

## **O'tish davri ta'siri**

Ushbu loyiha YTTB ning mamlakatdagi aloqalarini qayta tiklash maqsadini bardavom etadi, hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillariga xizmat ko'rsatayotgan moliyaviy jihatdan sog'lom banklar bilan yangi aloqalar o'rnatishga xizmat qiladi. Sindikatlashgan kredit kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillariga o'rta muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratish orqali Ipak Yo'li bankinining raqobatbardoshligini oshiradi. Kreditni milliy valyutada ajratish imkoniyatining mavjudligi, hamda moliyaviy ko'rsatkichlarga javob berishni talab etish, Ipak Yo'li banki faoliyatining barqaror bo'lishiga hissa qo'shadi.

## **Mijoz haqida ma'lumot**

IPAK YO'LI AKSIYADORLIK TIJORAT INNOVASION BANKI

Ipak Yo'li banki 1990 yilning aprel oyida O'zbekistonda universal tijorat banki sifatida tashkil topgan bo'lib, uning asosiy mijozlari kichik biznes vakillaridan iborat. 2017 yil yakunlariga ko'ra mamlakat banklarining umumiy aktivlarida IYB 2% ulushga ega bo'lib, kattaligi jihatdan mamlakatda 12 chi o'rinda turadi. Bank mamlakat bo'ylab 14 ta filial va 68 ta mini-banklar orqali faoliyat yuritadi.

## **YTTB ning Ipak Yo'li Bankiga ajratiluvchi moliyaviy mablag'i**

10,000,000.00 AQSH dollari

## **Loyihaning umumiy qiymati**

20,000,000.00 AQSH dollari

## **Ekologik va ijtimoiy xulosa**

Bank (2014 yilda qabul qilingan Ekologik va ijtimoiy nizomga asosan) moliyaviy muassasa sifatida tasniflanadi. Ipak Yo'li bankidan YTTBning Faoliyat yuritish uchun qo'yiluvchi talablar nizomiga (Performance Requirements), ya'ni Xalqaro Mehnat Tashkilotining talablarini o'z ichiga olgan PR2 (Mehnat va ishlash sharoitlari) va PR4 (Ish faoliyati bilan bog'liq sog'liqni saqlash va ehtiyotkorlik choralari)ga javob berilishi talab etiladi.

Shuningdek Ipak Yo'li Bankidan YTTB mablag'lari orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillarini moliyalashtirishni amalga oshirayotganida PR9 talablariga, ya'ni YTTBning ekologik va ijtimoiy yo'nalishda moliyalashtirilishi ma'n etilgan faoliyat turlari (jumladan paxta yoki to'qimachilik sanoat turlari) kiritilgan ro'yxatiga amal qilishi kerak. Bankning YTTB mablag'lari orqali moliyalashtirish ishlari bilan mashg'ul xodimlari YTTBning moliyaviy muassasalar uchun tayyorlangan ekologik va ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan onlayn trening dasturlarida ishtirok etishlari shart. YTTB mablag'lari bilan moliyalashtiriladigan barcha loyihalar mamlakatning ekologik, ijtimoiy, sog'liqni saqlash va xavfsizlik hamda mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Ipak Yo'li Banki YTTBning PR talablariga har doim javob berishi va Barqarorlik ko'rsatkichlari orqali YTTBga Ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha yillik hisobotlarni topshirishi kerak.

## **Texnik Ko'mak**

Bankka "O'zbekistondagi moliyaviy vositachi muassasalarning salohiyatini oshirish" dasturi doirasida texnik ko'mak ko'rsatiladi. Bank, shuningdek "Markaziy osiyo uchun mintaqaviy kichik biznes dasturi" doirasida texnik ko'makdan foydalanadi.

## **Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot**

Umumiy ma'lumotlar

[info@ipakyulibank.uz](mailto:info@ipakyulibank.uz)

+99871 140 69 00, 140 78 00

[www.ipakyulibank.uz](http://www.ipakyulibank.uz)

A.Qodiriy ko'chasi 2, Toshkent, O'zbekistan, 100017

## **Biznes hamkorligi**

Biznes hamkorligi yoki ta'minot masalalarida mijoz kompaniyaga murojaat qilishingiz mumkin.

## Umumiy so'rovlar

Xarid masalalari bilan bog'liq bo'lmagan YTTB loyihalari bo'yicha ma'lumot uchun:

Tel: +44 20 7338 7168; Fax: +44 20 7338 7380

Elektron manzil: [projectenquiries@ebrd.com](mailto:projectenquiries@ebrd.com)

## Ma'lumotlarni oshkor etish

Ma'lumotlarni oshkor etish siyosati YTTB o'zining strategiyasi, ichki nizomlari va jarayonlari borasidagi ma'lumotlarni qanday oshkor etishi va tegishli manfaatdor tomonlar bilan YTTB qanday muloqot qilishi tartiblarini belgilaydi.

[Ma'lumotlarni oshkor etish nizomining matni](#)

## Shikoyatlar uchun murojaat qilish vositasi

[Project Complaint Mechanism](#) (PCM), ya'ni shikoyatlar uchun murojaat qilish vositasi YTTBning mas'uliyatni o'z bo'yniga olish vositasidir. Mazkur vosita jismoniy shaxlar va tashkilotlardan YTTB tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar ekologik va/yoki ijtimoiy zarar yetkazgani bo'yicha da'volarni yoki yetkazishi mumkin holatlar bo'yicha shikoyatlarni xolisona ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi.

[Shikoyat qilish tartibi | Rus tilida](#)

Shikoyat qilish uchun [Project Complaint Mechanism](#) sahifasiga tashrib buyuring. Sizing shikoyatlar yuzasidan mavjud har qanday savolingizga Shikoyatlar bilan ishlashga mas'ul mutaxassis ([pcm@ebrd.com](mailto:pcm@ebrd.com)) Shikoyatlar qilish tartibiga muvofiq ([PCM Rules of Procedure](#)) javob beradi.

PCM doirasida qilingan har qanday shikoyat YTTB mablag'lari ajratilgandan so'ng eng kamida 12 oy muddat ichida amalga oshirilish kerak. Siz PCM ga mas'ul xodimga ([pcm@ebrd.com](mailto:pcm@ebrd.com)) orqali yoki YTTB ning mamlakatingizda joylashgan Vakolatxonasiga murojaat qilish orqali shikoyat davri muddatini aniqlashtirishib olishingiz mumkin.